
Difficulties faced by foreigners when learning paired and complex words in the Uzbek language

Dilfuza Pulatova Zaxitdjanovna

dilfuzapulatova31@mail.ru

Senior lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Uzbek State World Languages University

Annotation *The article analyzes the grammatical and semantic features of paired and compound words in the Uzbek language, as well as the problems that arise when studying them by foreign students. It also discusses effective methods and practical recommendations for teaching paired and compound words. Currently, the study/teaching of the Uzbek language is becoming one of the urgent problems. The main problem in this is the language and its correct use, compliance with the specific culture of communication of the Uzbek language, the correct use of language skills by foreigners, teaching them the norms of oral and written speech. Today, in the era of globalization, interest in the Uzbek language is growing. Students from different countries learn Uzbek not only as a means of communication, but also as an important factor in learning the culture of Central Asia. However, some grammatical units of the Uzbek language are considered difficult for foreigners. In particular, differences in the structure, meaning, and use of paired and compound words make them difficult to learn. Paired and compound words make up a rich lexical layer of the Uzbek language. They are important to enhance the expressiveness of speech, enhance meaning and clarity. Therefore, proper teaching of these units is an important task in developing the linguistic competence of foreigners.*

Keywords *Paired word, compound word, lexicology, Uzbek language, foreign students, language teaching methods, semantics*

O'zbek tilidagi juft va qo'shma so'zlarni o'rganishda xorijliklarda uchraydigan qiyinchiliklar

Pulatova Dilfuza Zaxitdjanovna

dilfuzapulatova31@mail.ru

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi juft va qo'shma so'zlarning grammatik hamda semantik xususiyatlari, ularni xorijlik talabalar tomonidan o'rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, juft va qo'shma so'zlarni o'qitishda samarali metodlar hamda amaliy tavsiyalar yoritiladi. Hozirgi kunda o'zbek tilini o'rganish/o'rgatish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu boradagi asosiy muammo – til va undan to'g'ri foydalanish, o'zbek tilining o'ziga xos muloqot madaniyatiga rioya qilish, xorijliklarda til ko'nikmalaridan to'g'ri foydalanish, ularga og'zaki va yozma nutq me'yorlarini o'rgatishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bugungi globallashuv davrida o'zbek tiliga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Turli davlatlardan kelgan talabalar o'zbek tilini nafaqat muloqot vositasi, balki Markaziy Osiyo madaniyatini o'rganishning muhim omili sifatida ham o'zlashtirmoqda. Ammo o'zbek tilining ayrim grammatik birliklari xorijliklar uchun murakkab hisoblanadi. Ayniqsa, juft va qo'shma so'zlarning tuzilishi, ma'nosi hamda*

qo'llanishidagi farqlar ularni o'rganishda qiyinchilik tug'diradi. Juft va qo'shma so'zlar o'zbek tilining boy leksik qatlamini tashkil etadi. Ular nutqning ta'sirchanligini oshirish, ma'noni kuchaytirish va aniqlik kiritishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur birliklarni to'g'ri o'rgatish xorijliklarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vazifa sanaladi.

Kalit so'zlar Juft so'z, qo'shma so'z, leksikologiya, o'zbek tili, xorijiy talabalar, til o'qitish metodikasi, semantika

Трудности, с которыми сталкиваются иностранцы при изучении парных и сложных слов в узбекском языке

Пулатова Дилфуза Захитджановна

dilfuzapulatova31@mail.ru

Старший преподаватель кафедры

Узбекского языка и литературы,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация В статье анализируются грамматические и семантические особенности парных и сложных слов в узбекском языке, а также проблемы, возникающие при их изучении иностранными студентами. В нем также рассматриваются эффективные методы и практические рекомендации по обучению парным и составным словам. В настоящее время изучение/преподавание узбекского языка становится одной из актуальных проблем. Основная проблема в этом – язык и его правильное использование, соблюдение специфической культуры общения узбекского языка, правильное использование языковых навыков иностранцами, обучение их нормам устной и письменной речи. Сегодня, в эпоху глобализации, интерес к узбекскому языку растет. Студенты из разных стран осваивают узбекский язык не только как средство общения, но и как важный фактор изучения культуры Центральной Азии. Однако некоторые грамматические единицы узбекского языка считаются сложными для иностранцев. В частности, различия в структуре, значении и использовании парных и сложных слов затрудняют их изучение. Парные и составные слова составляют богатый лексический пласт узбекского языка. Они важны для повышения выразительности речи, усиления смысла и ясности. Поэтому правильное обучение этим единицам является важной задачей в развитии языковой компетенции иностранцев.

Ключевые слова Парное слово, сложное слово, лексикология, узбекский язык, иностранные студенты, методика преподавания языка, семантика

Kirish

Juft va qo'shma so'zlar o'zbek tilining boy leksik qatlami hisoblanadi. Ular nutqning ta'sirchanligini oshirish, ma'noni kuchaytirish va aniqlik kiritishda muhim ahamiyat kasb

etadi. Shu sababli mazkur birliklarni to'g'ri o'rgatish xorijliklarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vazifa sanaladi.

Xususan, o'zbek tilidagi juft va qo'shma so'zlarning xorijliklar tomonidan o'rganilishi,

ayniqsa, chet elliklar uchun sezilarli darajada qiyinchilik tug'dirmoqda, chunki bunday so'zlar ko'pincha nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ma'noni, balki nutqning hissiy-bo'yoqdorligini, shu bilan birga, so'zlashuv va madaniy tuslarini ham ifodalaydi.

Juft so'zlar, aslida, ikki komponentning teng bog'lanishi orqali hosil bo'ladi. Juft so'zlar ma'nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi bo'lgan ikkita komponentning qo'shilishidan hosil bo'ladi. (Mirtojiev, 2010). Ular ko'pincha chiziqcha orqali yoziladi va ma'no jihatdan umumlashtirish, takrorlash yoki kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Masalan:

- *ota-ona* – родители,
- *kecha-kunduz* – день и ночь,
- *katta-kichik* – большой-маленький,
- *bordi-keldi* – взаимные визиты,
- *yaxshi-yomon* – хороший-плохой, "всякий, разный".

Juft so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ikki mustaqil komponentdan tashkil topadi;
2. Komponentlar ma'no jihatdan bog'liq bo'ladi;
3. Nutqda umumlashtirish yoki ta'kid ma'nosini ifodalaydi.

Bu kabi so'zlarni anglashda xorijliklar uchun qiyinchiliklar bir necha sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

1. Ma'noning noaniqligi

Butun konstruksiyaning ma'nosi har doim ham uning tarkibiy qismlari ma'nosidan kelib chiqavermaydi. Masalan, **bordi-keldi** juft so'zi to'g'ridan-to'g'ri "bordi va keldi" (прийти и уйти) degan ma'noni anglatmaydi, balki o'zaro tashriflar tizimini bildiradi.

2. Komponentlarning qat'iy belgilangan tartibi

Qismlarni erkin almashtirib bo'lmaydi. Neytral me'yorda **ota-ona** deyiladi, lekin *ona-ota* emas.

3. Uslubiy bo'yoqdorlik

Ko'pgina juft so'zlar so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, kontekstdan kelib chiqib ma'no anglatadi, ya'ni ularning ma'nosi kontekstga

bog'liq. Masalan: *Yaxshi-yomon kunlarimda yonimda bo'ldi*.

4. Fonetik xususiyatlari

Ba'zi juftliklar qat'iy mantiqqa emas, balki ritm va tovush uyg'unligi uchun yaratiladi:

- *kiyim-kechak* – одежда,
- *idish-tovoq* – посуда.

Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq asosning qo'shilishi orqali yangi ma'no hosil qiluvchi birliklardir. (Mahmudov, 2018). O'zbek tilida qo'shma so'zlar quyidagicha hosil bo'ladi:

- *temiryo'l* – железная дорога,
- *oshqovoq* – тыква,
- *qo'lqop* – перчатки,
- *gultojixo'roz* – название цветка петушиный гребешок,
- *oshxona* – кухня,
- *mehnatsevar* – трудолюбивый,
- *qo'lyozma* – рукопись.

Qo'shma so'zlarning asosiy belgisi shundaki, ular bir butun lug'aviy ma'noni ifodalaydi va ko'pincha bitta urg'u bilan talaffuz qilinadi.

Xorijliklar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar

1. Juft va qo'shma so'zlarni farqlashdagi muammo

Xorijlik talabalar ko'pincha juft va qo'shma so'zlarni bir-biridan ajratishda qiynaladilar. Chunki har ikkala birlik ham ikki komponentdan tashkil topadi.

Masalan:

- *ota-ona* – juft so'z,
- *temiryo'l* – qo'shma so'z.

Talabalar ayrim hollarda yozilishiga qarab xulosa chiqaradilar, ammo semantik va grammatik belgilarni e'tiborga olmaydilar.

2. Semantik ma'noni tushunishdagi qiyinchilik

Qo'shma so'zlarning ma'nosi ko'pincha tarkibidagi qismlar ma'nosidan farq qiladi. Bu esa xorijliklarda noto'g'ri tarjima qilish holatlarini yuzaga keltiradi.

Masalan:

- *belbog'* – "bel uchun bog'" emas, balki kiyim elementi;

- oqsoqol – so'zma-so'z tarjimada "oq soqolli", ammo aslida "hurmatli keksa inson" ma'nosini bildiradi.

3. Talaffuz va urg'u masalasi

Qo'shma so'zlar odatda bir urg'u bilan talaffuz qilinadi, juft so'zlarda esa komponentlarning ohangi saqlanib qoladi. Xorijliklar bu fonetik farqni anglashda qiynaladilar.

Masalan:

- kecha-kunduz,
- temiryo'l.

Noto'g'ri talaffuz muloqotda tushunmovchilikka sabab bo'lishi mumkin.

4. Yozuvdagi qoidalarni o'zlashtirish

O'zbek tilida ayrim so'zlar qo'shib, ayrimlari esa chiziqcha bilan yoziladi. Bu holat xorijliklarda imloviy xatoliklarni ko'paytiradi.

Masalan:

- tez-tez,
- sotib olmoq,
- qo'lqop.

Talabalar ko'pincha "qo'l qop" yoki "ota ona" tarzida noto'g'ri yozadilar.

5. Ona tilining ta'siri

Xorijliklar o'z ona tilidagi grammatik tizim asosida fikrlashga moyil bo'ladilar. Agar ularning tilida juft yoki qo'shma so'zlar boshqa usulda shakllansa, o'zbek tilidagi tizimni qabul qilish qiyinlashadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ta'lim metodi uning taktikasini emas, balki o'qitish strategiyasini belgilaydi. (Азимов, Щукин, 2009).

Masalan, ingliz tilida ko'plab compound words alohida yozilishi mumkin:

- school bag,
- post office.

Bu esa o'zbek tilidagi "maktabsumka" kabi shakllarni noto'g'ri qabul qilishga olib keladi.

6. Qo'shib yozish yoki ajratib yozish

Chet elliklar uchun so'zlarning qo'shib, chiziqcha yoki ajratib yozilishi ularning ushbu so'zlarni tubdan anglab yetishlarida o'ziga xos qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

7. Qo'shilganda ma'noning o'ziga xosligi

Qo'shma so'zning ma'nosi uning qismlari ma'nolarining yig'indisidan farq qilishi mumkin: **oshxona** so'zma-so'z "комната еды" degan ma'noni bildiradi, lekin rus tilida "кухня" yoki "столовая" ma'nosini anglatadi.

8. So'z yasovchi modellarning ko'pligi

O'zbek tilida affikslar va asos qo'shilishi faol qo'llaniladi, bu esa, o'z navbatida, morfologiyani yaxshi tushunishni talab etadi. (Nurmonov, 2012).

O'zbek tilini o'rganayotgan yevropa tillarida so'zlashuvchilar uchun qiyinchilik quyidagi sabablarga ko'ra kuchayadi:

- o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub;
- so'z tuzilishi hind-yevropa tillaridan farq qiladi;
- ifodalarning mazmuni va barqarorligi katta ahamiyat kasb etadi;
- ko'plab konstruksiyalarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi.

O'rganishning samarali usullari

Chet elliklarga quyidagilar yordam beradi:

- so'zlarni alohida emas, balki kontekstda o'rganish;
- barqaror juftliklarni tayyor birlik sifatida yodlash;
- dialoglar va badiiy matnlarni o'qish;
- ona tilidagi o'xshash tuzilmalar bilan chog'ishtirish;
- til sohiblari bilan so'zlashuv amaliyotini olib borish.

Juft va qo'shma so'zlarning shaxsiy lug'atini misollardan foydalangan holda yuritish ayniqsa foydalidir.

Juft va qo'shma so'zlarni o'qitish metodlari

Kontekst asosida o'qitish

So'zlarni alohida emas, gap va matn tarkibida o'rgatish samarali hisoblanadi. Bu usul talabaga ma'noni tabiiy ravishda anglash imkonini beradi.

Misol:

- Ota-ona farzand tarbiyasiga mas'ul.
- Temiryo'l iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyatga ega.

Vizual metodlardan foydalanish

Rasm, jadval va diagrammalar orqali qo'shma so'zlarning tarkibini tushuntirish yaxshi natija beradi.

Qo'shma so'z	Tarkibi	Ma'nosi
qo'lqop	qo'l + qop	qo'l kiyimi
belbog'	bel + bog'	kiyim elementi

1-jadval.

Taqqoslash usuli

Xorijliklarning ona tili bilan o'zbek tilini qiyoslash orqali farqlarni ko'rsatish foydali hisoblanadi.

Interaktiv mashqlar

- juft va qo'shma so'zlarni ajratish;
- noto'g'ri yozilgan so'zlarni tuzatish;
- gap tuzish mashqlari;
- lug'aviy o'yinlar.

Ushbu metodlar talabalar faolligini oshiradi.

Shuningdek, talabalarning juft va qo'shma so'zlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun mavzuli guruhlar tuzish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: **"Oila"** matnini yaratishda faol uchraydigan leksika:

- ota-ona,
- aka-uka,
- opa-singil.

Yoki maishiy hayot bilan bog'liq **"Uyda"** matni bilan bog'liq leksika:

- yidish-tovuq,
- kiyim-kechak,
- oziq-ovqat.

So'zlar matnlar Ichida berilgandamazmun va ma'no jihatidan bog'lanadi.

Tarjimani emas, balki funksiyani o'rganish ham yaxshi natija beradi.

Masalan:

- gap-so'z → "suhbatlar, mish-mishlar, g'iybatlar".

Ushbu holatda har bir qismni alohida tarjima qilish shart emas.

Xulosa

O'zbek tilidagi juft va qo'shma so'zlar tilning muhim leksik birliklari hisoblanadi. Ularni o'rganishda xorijliklar semantik, fonetik, grammatik va imloviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, juft va qo'shma so'zlarning farqini anglash, ularning ma'nosini to'g'ri tushunish hamda yozuv qoidalarini o'zlashtirish murakkab jarayon hisoblanadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy pedagogik metodlardan, kontekstual yondashuvdan va interaktiv mashqlardan foydalanish muhimdir. Shu orqali xorijliklarning o'zbek tilini samarali o'zlashtirishi ta'minlanadi.

References:

1. Mirtojdiyev, M. (2010). *Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi*. Toshkent.
2. Mahmudov, N. (2018). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi*. Toshkent.
3. Azimov, E. G., & Shchukin, A. N. (2009). *Slovar metodicheskikh terminov (teoriya i praktika prepodavaniya yazykov)*. IKAR.
4. Nurmonov, A. (2012). *O'zbek tilshunosligi asoslari*. Toshkent.